

TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA YANGI INNOVATSION METODLARNI QO’LLASH

Xojibekova Sadoqatbonu Zafarjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san’at” fakulteti

“Tasviriy san’at” yo’nalishi magistranti 1-bosqich talabasi

sadoqatoyzafarovna@gmail.com

Anotatsiya: *Ushbu tezisdagi tasviriy san’at darslarida innovatsion metodlardan foydalanish, o’quvchilarda kreativ fikrlash ko’nikmasini paydo qilish masalasi bayon qilinadi.*

Kalit so’zlar: *Metod, tasviriy san’at, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, kreativ fikrlash, pedagogik metodlar.*

Аннотация: *В данном тезисе рассмотрены современные инновационные методы, применяемые на уроках изобразительного искусства. Особое внимание уделено вопросам развития у учащихся навыков креативного мышления, а также формированию их творческого потенциала посредством использования цифровых и педагогических технологий.*

Ключевые слова: *метод, изобразительное искусство, инновационные подходы, цифровые технологии, креативное мышление, педагогические методы.*

Annotation: *This thesis examines modern innovative methods applied in visual arts education. The study focuses on fostering students’ creative thinking skills and developing their artistic potential through the effective use of digital tools and pedagogical techniques.*

Keywords: *method, visual arts, innovative approaches, digital technologies, creative thinking, pedagogical methods.*

Bugungi ta’lim jarayonida tasviriy san’at fanini o’qitishda innovatsion metodlardan foydalanish o’quvchilarning kreativ fikrlashi, badiiy didi va mustaqil izlanish ko’nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Raqamlashtirilgan jamiyatda tasviriy san’at ta’limiga ham juda katta imkoniyatlar yaratilmoqda.

Fanning maqsadi. Tasviriy san’at darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

Vazifalari. Zamonaviy metodlarning o’quv jarayoniga ta’sirini o’rganish. Raqamli vositalardan foydalanishning afzalliklarini asoslash. O’quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan metodlarni amaliy tahlil qilish.

Innovatsion metodlar — bu ta’lim jarayonida keng qo’llaniladigan yangi texnologiyalar, interaktiv yondashuvlar, raqamli vositalar va o’quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Tasviriy san’at darslarida “Mind-map”, “Kreativ loyiha”, “Raqamli eskiz”, “Grafik planshet bilan chizish”, “Animatsiya asoslari”, kabi zamonaviy metodlar o’quvchilarning mavzuni chuqur anglashiga va badiiy tafakkurining kengayishiga estetik did ko’nikmalariga ega bo’lishga xizmat qiladi. Shuningdek, 3D-modellashtirish dasturlari, onlayn galereyalar, virtual muzeylar va raqamli kollaj texnologiyalaridan

foydalanish o‘quv jarayonini qiziqarli, interaktiv, chuqur mulohazali va zamonaviy ko‘rinishga olib keladi.

Bir so‘z bilan aytilganda zamonaviy metodlardan foydalanish, uni amaliyotga joriy qilish orqali tasviriy san‘at darslarining sifatini oshirish bugungi kundagi eng dolzarb masala hisoblanadi. Bugungi zamonaviy ta’lim jarayonida tasviriy san‘at darslarini boshqa fanlar bilan bog‘liqlikda ya’ni STEAM texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘rganish o‘quvchilarda tasviriy san‘at faniga bo‘lgan qiziqishlarini yanada kuchaytiradi. Shu bilan birgalikda tasviriy san‘at fani nafaqat estetik did balki inson ruhiyatida bo‘layotgan ichki kechinmalarni anglashda ham muhim ahamiyatga ega. Shu omillarni hisobga olgan holda tasviriy san‘at fanini psixologiya fani bilan bog‘lagan holda “Art terapiya” mashg‘ulotlarini tashkil qilish lozim.

XULOSA

Tasviriy san‘at darslarida innovatsion metodlarni qo‘llash o‘quvchilarning san‘atga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi, badiiy dunyoqarashini kengaytiradi va kreativ tafakkurni rivojlantiradi. Zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarda yangi badiiy g‘oyalar yaratish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi, 2020-yil.
2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami, 2022-yil
3. [jdpu.uz/steam-tehnologiyalarining- bugungi- kundagi- ahamiyati- va- afzalliklari/](http://jdpu.uz/steam-tehnologiyalarining-bugungi-kundagi-ahamiyati-va-afzalliklari/) Bultakova Roziya Xasan qizi. Maqola. 13.03.2023
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Tasviriy san‘at](https://uz.wikipedia.org/wiki/Tasviriy_san%27at) .05.12.2025.